

**ONANING O'Z CHAQALOG'INI QASDDAN O'LDIRISHI JINOYATI UCHUN
JINOIY JAVOBGARLIKNING AMALIY VA NAZARIY MUAMMOLARI**

Mexmonov Begzodjon Axral o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali talabasi
bekkhoja38@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi jinoyatida javobgarlik masalalarining amaliyotda hamda nazariyada yuzaga keladigan bir qancha muammolar va ularga atroflicha yechimlar haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: neonatitsid, yangi tug‘ilgan chaqaloq, onaning tug‘ish vaqtidagi holati, jinoyat, amaliy muammolar, tahlil, nazariy muammolar, qonunchilik.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda oilaga, ayollar va bolalarga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Buning sababi sog‘lom avlodni dunyoga keltirish hamda uni vatan ravnaqi uchun to‘g‘ri tarbiyalashdir. Bu haqida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “ Hammamiz yaxshi tushunamiz, bugungi tez o‘zgarayotgan, ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin.¹” deb ta’kidlab o‘tgan.

Xalqimizning yangi tug‘ilajak chaqaloqni hali dunyoga kelmasdan turib uning ozru-havasini qilishligi, unga qanday ism qo‘yish haqidagi fikrlari shubhasiz go‘dakka nisbatan beriladigan eng birinchi mehrdir. Endigina dunyoga kelgan chaqaloqni ona tomonidan o‘ldirilishi esa jamiyat tomonidan ham qonun tomonidan ham qoralanadi. Ushbu holat ko‘philik davlatlarda jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham jinoyat sanaladi.

Inson dunyoga kelgacha qancha muddat chaqaloq hisoblanadi va undan keyingi maqomlar qanday atalishi onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi jinoyatida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, qaysi vaqtidan boshlab bola ushbu jinoyatning obyekti bo‘ladi? Tug‘ilgan vaqtidanmi yoki ona qornida homila paydo bo‘lgan vaqtidami? degan savol tug‘iladi. So‘z uning shaxs sifatida tan olinishi va jinoyat qonunida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyekti bo‘lishi mumkinligi haqida bormoqda. Yuridik adabiyotlarda bu borada qarama-qarshi qarashlar bor. Ayrim mualliflar inson hayotining boshlanish payti deb go‘dakning nafas ola boshlashi yoki bolaning ona qornidan to‘liq ajralib chiqish vaqtini hisoblaydilar. Boshqalar esa homilaning yetarli darajada rivojlanib, ona qornida homila tarzida hayot uchun barcha zaruriy sifatlarga ega bo‘lganligini tasdiqllovchi jismoniy to‘lg‘oqning boshlanishi bilan belgilaydilar.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, T. 2018. – 464 b.

Mamlakatimizdagi ba’zi huquqshunos olimlardan bir M.X Rustamboyevning fikricha, bu qarashlar unchalik to‘g‘ri emas, chunki jismoniy to‘lg‘oqning boshlanishi, tug‘ish jarayonining boshlanishidir. Bu vaqtida homilaga zarar yetkazishni homilador ayolning sog‘lig‘iga zarar etkazish, deb qaramoq kerak va bu qilmish Jinoyat kodeksidagi shaxsning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni ko‘zda tutuvchi bobining tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Go‘daklarni o‘ldirish - bu hayotning birinchi yilidagi bolaning o‘ldirilishini anglatadigan qonuniy atama. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘ldirish davri qonun bilan aniq belgilanmagan bo‘lsa ham , ammo tibbiy nashrlarda odatda hayotning birinchi 24 soati davomida bolaning o‘ldirilishi nazarda tutiladi. Yuridik olamda yangi tug‘ilgan chaqaloq hayotining dastlabki 24 soati ichida ota-onalar tomonidan o‘ldirilgan noyob holatni “Neonatitsid” deb atashadi. Ushbu atamani fanga 1970- yilda Filipp Resnik kiritgan.

Xususan, jinoyat qonunida va sud tibbiyotida qo‘llaniladigan tor ma’nodagi farzandkushlik onaning yangi tug‘ilgan chaqalog‘ini tug‘ruq paytida yoki bevosita tug‘ruqdan keyin o‘ldirishini anglatadi.

Ushbu normami imtiyozli tarkibdagi jinoyat sifatida o‘rnatalishida nimalarga e’tibor qaratish lozim, onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishini qasddan odam o‘ldirishning boshqa turlaridan ajratib turuvchi xususiyatlari nimada degan masalada xilma-xil qarashlarni ilgari suradi. Bu masalada zamonaviy jinoiy-huquqiy ta’limotlar ham yagona fikrga ega emas. Mazkur jinoyatni qaysi toifadagi qasddan odam o‘ldirish jinoyati turiga kiritilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasi va ijtimoiy xavflilik xususiyatlarini belgilab beradi. Ayollarning tuban xulk-atvorining eng tipik ko‘rinishlaridan biri - ular tomonidan o‘z chaqalogini o‘ldirish sabablari haqidagi ilmiy ishlar ham e’tiborga loyiqdirdir.

Onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi jinoyat huquqi va kriminalogiya nuqtai nazaridan o‘rganilib, yangi tug‘ilgan chaqaloqning ona tomonidan o‘ldirilishi sabablariga alohida e’tibor qaratilib, bu jinoyatga onaning onalik instinkti, ya’ni biologik xususiyatga ega emasligi sabab bo‘lganligi taxmin qilinadi.

O‘rganilgan farzandkushlik jinoyatining tarixiy hujjat hamda manbalarga ko‘ra uzoq o‘tmishga borib taqalishini isbotlamoqda. Ushbu izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishga sabablar sifatida tug‘ilgan chaqaloqning nogironligi, tug‘ma nuqsonlari mavjudligi, ayol o‘z farzandini nikoxsiz dunyoga keltinganligi sababli o‘z chaqalog‘ini nobud qilishini tarixiy manbalar ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi zamirida xodisalar bir necha guruhining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Birinchi - ayol hayotida jinoyat sodir etishdan oldingi vaziyat. U har xil bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda ayol o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishiga sabab bo‘ladi, ayrim hollarda esa bunday xolat yuz bermaydi. Y.M.Antonyan ayrim bo‘lajak jinoyatchi ayollar bir qarashda yaxshi oilada tarbiyalangani, ota-onasi ularga yaxshi munosabatda bo‘lganligini qayd etadi.

Ikkinchi - shaxsning ijtimoiy xususiyatlari, manfaatdor shaxslarning gapiga kirmaslik qobiliyati.

Uchinchi - ayolning biologik, psixologik xususiyatlari, xulq-atvori. Odatda, ayollar o‘ta ta’sirchan, his-tuyg‘ularga boy bo‘ladi. Bu beqaror ruhiy jarayonlar tug‘ruq jarayonida sezilarli darajada kuchayadi, ayollarda nevrozlar va psixopatiyalar darajasi xam ancha yuqori bo‘ladi. Bularning barchasi birgalikda onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy maqomga ko‘ra, bolalarning qotillari quyidagicha taqsimlanadi: 18% ishchilar; 6% - xodimlar; 6% qishloq xo‘jaligi ishchilari; 8% - talabalarni tashkil qiladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, 27% hollarda jinoyat sodir bo‘lgan joy kvartira, 21% - yotoqxona, 13% - hovlidagi hojatxona, 12% - xususiy uy, 12% - ko‘cha bo‘lgan. , 9% da - omborxona, 6% - sabzavot bog‘i.

Kunning vaqtiga ko‘ra, chaqaloqlarning qotilliklari quyidagicha taqsimlanadi: 22 dan 6 soatgacha bo‘lgan davrda qotilliklarning 54%, 7 dan 12 soatgacha - 21%, 13 dan 18 soatgacha - 22%, 19 dan 21 soatgacha - 3% bolalar qotilligining asosiy qismi soat 22:00 dan ertalabki 6 gacha sodir bo‘ladi.

“tug‘ilish paytida”, “tug‘ilgandan keyin darhol” va “yangi tug‘ilgan chaqaloq” kabi tushunchalarning vaqt oralig‘ini aniqlash muammosi. Demak, V.I.Radchenkoning fikricha, tug‘ruq vaqtida qotillik homila allaqachon tug‘ila boshlagan, lekin onadan hali to‘liq ajralmaganligini bildiradi”. Boshqa olimlar bu momentni “ona tanasidan tananing biron bir qismining paydo bo‘lishi” deb ta’riflaydilar.

Bizningcha “tug‘ish vaqt” tushunchasi onaning tug‘ishdan oldingi holatidan boshlab to tug‘ish jarayoning oxirgi nuqtasigacha ketgan vaqt hisoblanadi. Bu jarayon har xil bo‘lishi mumkin, chunki har bir ayol organizmining xususiyati turlicha bo‘ladi. “Tug‘ishi hamon” tushunchasi “tug‘ish vaqt” jarayonining bir qismi sanaladi.

Bundan tashqari onaga bolani tug‘ishidan oldin boshqa shaxslar tomonidan ruhiy, jismoniy bosim o‘tkazilishi yoki moddiy tomonidan qaramligi tufayli o‘sha shaxslarning hoxishi bilan yangi tug‘ilgan chaqaloqni o‘ldirishi xavflari mayjud bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar surishtiruv tergov jarayonlarida aniqlanadigan bo‘lsa ularga nisbatan javobgarlikni mazkur normada belgilab o‘tish lozim. Bu taklifni jinoyat kodeksi 99-moddasi 2-qismi tariqasida , “onaning o‘z chaqaloq(lar)ini o‘ldirishiga sababchi bo‘lgan shaxslarga nisbatan – 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish” jazosini nazarda tutish mumkin. Sababchi shaxslar deganda, dalolatchi, tashkilotchi yoki yordamchi kabi toifadagi shaxslar tushunillishi mumkin.

Hozirgi kunda 13-14 yoshda ham ona bo‘lish holatlarini ko‘rmoqdamiz. Bu yoshdagি onalarda hali onalik inistinki, bolaga nisbatan mehr tuyg‘ulari rivojlanmagan bo‘ladi. Buning ustiga bu yoshda nikohsiz chaqaloqlarning tug‘ilishi jamiyat tomonidan qattiq qoralanadi. Hali balog‘at yoshiga yetmagan yosh onalar o‘zining yangi tug‘ilgan chaqalog‘ini nobud qilishi ham mumkin. Jinoyat qonunchiligining mazkur belgilangan normasi shu yoshdagи subyektlarni

ham o‘z qamroviga olishi uchun subyekt yoshini 14 yosh qilib belgilashini maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi jinoyattida javobgarlik masalalarida tibbiyot bilimlarining ro‘li ham alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Ularni hisobga olgan holda qonunchilikka kerakli qo‘srimchalar va takliflar kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, T. 2018. – 464 b.
2. Rustamboyev M.X. “Hayotga qarshi jinoyatlar” O‘quv qo‘llanma. – T.:, “Eldinur”, 1998.- 181 b.; Abdurasulova Q.R.Ayollar jinoyatchilig va ularni oldini olish muammolari. O‘quv qo‘llanma / -Toshkent., 2007.; Usmonaliyev M, Karaketov . Kriminologiya (Darslik)-T.: Yangi asr avlod, 2001,- 450 b.
3. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Toshkent: Ilm-ziyo nashryot uyi.2011 y. 295 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.:Adolat, 2015. - 412 b.